



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



ERTAKLARDA XALQ TABOBATI DORI TERAPIYASI

Munisa Matkarimova

Urganch davlat universiteti o‘qituvchisi

Ma’lumki, tabobat insonlarning amaliy faoliyati va hayotiy zarurat natijasida paydo bo‘lgan va bu ularning yashash tarzi, orzu-umidlari, bilim va tajribalarini o‘zida mujassam etgan xalq og‘zaki ijodi namunalarida ham o‘ziga xos tarzda ifodasini topgan. Tabobat an’analari – odamlarning sog‘liqni saqlashga oid tajribalari asosida bilim, malaka va ko‘nikmaning hosil bo‘lishidir⁸³. X.Jumanazarov so‘zlari bilan aytganda, “xalq tabobati an’analari – insonlarning yashash tarzi, mashg‘ulot turi, xo‘jaligi, diniy qarashlari, umuman, ijtimoiy faoliyat natijasida to‘plangan tajribalar yig‘indisidir”⁸⁴. “Xalq tabobati asrlar davomida e’tirof etilgan qadriyatlar asosida kasalliklarni oldini olish, sog‘lomlashtirish, tashxis qo‘yish, inson tanasini yaxlit o‘rganish va faqat tabiiy vositalar yordamida davolash an’analaridir”⁸⁵. Ruhiiy ta’sir orqali davolovchi mistik tabiblar (*baxshi, folbin, azayimxon, sadqoqchi, duoxon, parixon* va h.k) va inson tanasini davolovchi empirik tabiblar (*siniqchi, kahhol, siloqchi, jarroh, doya* va h.k.)ning ish jarayoni va kasb taraqqiyoti xalqning amaliy bilimlari bilan hamohang yashab kelmoqda. O‘zbek xalq tabobati dori terapiyasida dori-darmonlar kelib chiqish asosi uchga bo‘lingan:

1. O‘simliklar.
2. Hayvonlar tana a’zolari va mahsulotlari.
3. Mineral xom ashyolar.

Tabiblar mahalliy hududda aholi yetishtiradigan madaniy o‘simliklar yoki yovvoyi holda o‘sovchi giyohlarning davo xususiyatlaridan samarali foydalanishgan va shu asosda sodda, murakkab dorilar tayyorlashgan yoki dorigarlar, attorlardan tayyor dorini sotib olishgan. Turli kasalliklarni o‘simliklardan tayyorlangan damlamalar, malhamlar va iksirlar shaklida davolash uzoq vaqtdan beri keng qo‘llanilgan va bu ertaklarda ham aks etgan. Xususan, “Egri va To‘g‘ri” ertagida o‘qiymiz: “...bizning o‘rmonda bir qayrag‘och bor, uning pastrog‘ida ikki shoxchasi bor. Shu shoxchalarning yaproqlari butun kasallarga davo. Mana shu shahardagi podshohning qizi yetti yildan buyon kasal...Agar o‘sha qayrag‘och yaprog‘ini ezib, shu qizga ichirilsa, u darrov sog‘ayar”⁸⁶. Bu so‘zlarni eshitgan ertak qahramoni To‘g‘riboy qayrag‘och barglarini ezib ichirib, ko‘p tabiblar sog‘aytirolmagan qizni davolaydi. Shuningdek, “O‘ynang, kuchugim, o‘ynang!” ertagida ham o‘simlik asosli dori terapiyasini kuzatamiz. Ertakda og‘ir kasal bo‘lib qolgan “cholning kasalini bironta tabibib tuzata olmabdi. Nihoyat, tabiblar cholga olmurut shoxini qaynatib ichganidagina

⁸³ Nyiegwen A. Modernity in traditional medicine: Teses and Dissertations. – Umeå: International School of Public Health, 2011. – P. 5.

⁸⁴ Jumaniyozov X. O‘zbeklarning xalq tabobati an’analari (tarixiy-etnologik tadqiqot). Tarix fanlari f.f.f.d. diss; –T.: 2018. –B. 19.

⁸⁵ Hamroyev M. O‘zbek xalq tabobatining nazariy va amaliy asoslari. –Toshkent: 2015. –B. 328.

⁸⁶ Egri va To‘g‘ri // O‘zbek xalq ertaklari. I Jild. –Toshkent: -B. 338.



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



sog‘ayib ketishini aytishibdi”⁸⁷. Cholning kenja qizi Zimzim shahridan olmurut shoxini olib kelib, otasiga qaynatib ichirgach, qariya tuzalib ketadi. “Hotam” ertagida “Xotinlardan biri: — Bu bola besh oydan beri behush bo‘lib yotibdi, lekin sababini bilmaymiz, biz shu bolaning holidan xabar olib turamiz, — debdi. Hotam xotinlardan bir choydush so‘rab, unga chinordan olib kelgan barglarni solib qaynatibdi. So‘ngra uni bolaning og‘ziga tomizibdi. Birozdan keyin behush bo‘lib yotgan bola o‘ziga kelibdi, ko‘zini ochib, o‘rnidan turibdi. Bola yana chinor bargining suvidan ichibdi”⁸⁸.

Dori tayyorlashda hayvon a‘zolaridan yoki ularning suti, qoni va boshqa qismlaridan foydalanilgan. Odatda, har bir aholi davolashda o‘zlari boqadigan hayvon qismlaridan foydalanadi. Masalan, arablarda tuyaning go‘shiti, sut mahsuloti va chiqindilari⁸⁹, chuvash⁹⁰larda esa otning tana a‘zolari ishlatilsa, o‘zbek xalq tabobatida mayda va yirik chorva mollarining mahsulotlari ko‘proq o‘rin egallaydi. Ammo ertaklarda asosan, yovvoyi hayvonlar go‘shiti, qoni, sut mahsulotiga murojaat qilinadi. Hayvonlardan olingan dori-darmonlarda sut keng qo‘llanilgan. Ta’kidlash joizki, ertak matnlarida hayvonlar suti ham, ona suti ham dori sifatida ishlatiladi. Masalan, “Baxtli kal” ertagida ayiq suti tish og‘rig‘iga davoligi qayd qilinadi⁹¹. “Til tig‘dan o‘tkir” ertagida “...mamlakat podshosi qattiq kasal bo‘lib qolibdi. Mashhur tabiblar ham ko‘rib uni tuzata olmabdilar. Nig‘oyat, bir donishmand chol podsho qoshiga kelib: — Sher sutini ichsangiz tuzalasiz, — debdi... Podsho sher sutini ichib sog‘ayibdi”⁹². “Gungila” ertagida tabib xulosasiga ko‘ra, “bolani yaxshi qilish uchun Dashti Kabirda bir daraxt bor, shu daraxtning sutidan olib kelib, ona suti bilan birga ichirsa, shundan keyin tilga keladi”⁹³. Ertak nihoyasida tabib Gungilani bir necha kun och qo‘yib, daraxtning sutini ona suti bilan birga ichirib, o‘zi beradigan taomlardangina berib, tilini chiqarib, reglaridan (tomirlaridan – M.M.) nashtar urib davolaydi. Gungila qirq kun deganda gapira boshlagach, uyiga olib ketib, yana qirq kun muolaja qiladi.

Shu o‘rinda aytish lozimki, ertaklarda nafaqat tabiblar, asos ko‘pchilik hollarda ertak qahramonlari kasalni tuzatadi. Bu, bir tomondan, ertakda yetakchi qahramonning maqsadga erishishi yo‘lida qo‘yilgan shart taqozosidir. Ayni holat shart-sinov motiviga borib taqaladi.”Sinov qahramonning kasalmandni davolashi bilan bog‘liq. Sog‘ayish sharti aniq biror narsaga aloqador”⁹⁴. Ikkinchidan, “Ilk davrlarda to‘plangan tibbiy tajribalar umumjamo’a mulki bo‘lib, ulardan har kim foydalana olgan. Vaqtlar o‘tishi bilan tibbiy an’analar ba’zi insonlar qo‘lida to‘planib, ular tomonidan rivojlantirildi va egallangan

⁸⁷ O‘ynang, kuchugim, o‘ynang!// O‘zbek xalq ertaklari. III Jild. –Toshkent: -B. 45.

⁸⁸ <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-xalq-ogzaki-ijodi/uzbek-xalq-ertaklari/hotam>

⁸⁹ Karimova S. Ismoil al-Buxoriyning tabobatga oid hadislarini // Sharqshunoslik. – 1999. – № 9. – B. 15.

⁹⁰ Никонова Л. Традиционная медицина тюркских народов Поволжья и Приуралья как часть системы их жизнеобеспечения. – Рузаевка: Рузаевский печатник, 2000. – С. 78.

⁹¹ <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-xalq-ogzaki-ijodi/uzbek-xalq-ertaklari/baxtli-kal>

⁹² <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-xalq-ogzaki-ijodi/uzbek-xalq-ertaklari/til-tig-dan-o-tkir>

⁹³ Gungila // Kulsa - gul, yig‘lasa – dur. Ertaklar. – T.: Adabiyot va san‘at nashriyoti, 1983. -B. 145.

⁹⁴ Nazarova Sh. Xayolva haqiqat: folklor va teologiya kesimida. – T.: MUMTOZ SO‘Z, 2013. –B. 34.



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



tajribalar natijasida tabiblik kasbi yuzaga keldi”⁹⁵. Har kimning umumjamoa mulki bo‘lgan tibbiy tajribalar xazinasidan foydalanishi xalqning uzoq o‘tmishidan beri og‘izdan -og‘izga o‘tib kelayotgan ertaklarda o‘z izini qoldirgan: ertak qahramonlari tabib bo‘lmasalar-da, shifo vositasi haqida eshitgan axboroti (To‘g‘riboyning ayiq tilidan qayrag‘och barglarini ezib ichirish kasalga davoligini eshitib qolishi yoki “Til tig‘dan o‘tkir” ertagida donishmand cholning podshoga sher suti davoligini aytishi) yoki tabiblar tavsiyasi asosida (“O‘ynang, kuchugim, o‘ynang” ertagida tabib tavsiyasi asosida kenja qiz otasini olmurut bargini qaynatib ichirib sog‘aytiradi) bemorni davolaydilar.

Xulosa qilganda, ertaklar matnlari o‘zbek xalq tabobati dori terapiyasida asosan o‘simlik va hayvonot mahsulotlaridan foydalanganlarini ko‘rsatadi. Ko‘pchilik hollarda ertaklarda kasallikning to‘liq xarakteristikasi va davolash jarayoni batafsil bayon qilinmaydi. Balki, kasalga nima davoligi aytilib, shundan shifo topgani bir qisqa jumla bilan ifodalanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Nyiegwen A. Modernity in traditional medicine: Teses and Dissertations. – Umeå: International School of Public Health, 2011.
2. Jumaniyozov X. O‘zbeklarning xalq tabobati an‘analari (tarixiy -etnologik tadqiqot). Tarix fanlari f.f.f.d. diss; –T.: 2018.
3. Hamroyev M. O‘zbek xalq tabobatining nazariy va amaliy asoslari. –Toshkent: 2015. – B. 328.
4. Egri va To‘g‘ri // O‘zbek xalq ertaklari. I Jild. –Toshkent: 2007.
5. O‘ynang, kuchugim, o‘ynang!// O‘zbek xalq ertaklari. III Jild. –Toshkent: 2007.
6. <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-xalq-ogzaki-ijodi/uzbek-xalq-ertaklari/hotam>
7. Karimova S. Ismoil al-Buxoriyning tabobatga oid hadislarini // Sharqshunoslik. – 1999. – № 9.
8. Никонова Л. Традиционная медицина тюркских народов Поволжья и Приуралья как часть системы их жизнеобеспечения. – Рузаевка: Рузаевский печатник, 2000.
9. <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-xalq-ogzaki-ijodi/uzbek-xalq-ertaklari/baxtli-kal>
10. <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-xalq-ogzaki-ijodi/uzbek-xalq-ertaklari/til-tig-dan-o-tkir>
11. Gungila // Kulsa - gul, yig‘lasa – dur. Ertaklar. – T.: Adabiyot va san‘at nashriyoti, 1983.
2. Nazarova Sh. Xayol va haqiqat: folklor va teologiya kesimida. – T.: MUMTOZ SO‘Z, 2013.

⁹⁵ Jumaniyozov X. O‘zbeklarning xalq tabobati an‘analari (tarixiy -etnologik tadqiqot). Tarix fanlari f.f.f.d. diss; –T.: 2018. –B. 40.

